

является некоторая несовместимость спаренных овец расцветок пламя свечи и стальная и такая комбинация приводит к некоторому уменьшению выхода ягнят с уравненной расцветкой, что следует учесть в селекционной работе с овцами сур каракалпакского породного типа.

Список использованной литературы

1. Плохинский Н. А. Руководство по биометрии для зоотехников. Москва, 1969, 256 стр.
2. Ролдугина Н. П. Зависимость окраски волосяного покрова каракульских ягнят от количества и характера распределения пигмента. В кн Формообразование каракульского завитка и смушка. Т., 1966. С. 139-151.
3. Стояновская В. И. Методы племенной работы с каракульскими овцами окраски сур. Технология производства продукции каракулеводства. М: Колос, 1975. С. 46-56.
4. Стояновская В. И. Смушковые качества каракульских овец белой окраски. Каракулеводство. Т., 1972, Вып. 1. С. 162-163.
5. Турганбаев Р. Продуктивные и биологические особенности овец сур каракалпакского породного типа расцветок урюк-гуль и камар. Автореф. канд. дисс. Самарканд, 1993.
6. Юсупов С. Ю., Газиев А. ва бошқалар. Қоракўлчиликда наслчилик ишларини юритиш ва қўзиларни баҳолаш (бонитировка қилиш) бўйича қўлланма. Тошкент, 2015, 31 бет.

UO‘K: 636.32.38.088

Qorako‘l qo‘ylari avlodlarida tana tuzilish ko‘rsatkichlari

Sh.X.Jiyanmurodova-tayanch doktorant

Z.S.Klichev- ilmiy kotib, q.x.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada qorako‘l qo‘ylarining tirik vazn ko‘rsatkichlari va eksteryer xususiyatlari tahlili to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sovliqlar, suruv aylanmasi, eksterer, qarchig‘ay balandligi, ko‘krak qafasi, ko‘krak chuqurligi.

Summariy. This article provides information on changes in live weight and exterior characteristics of Karakol lambs.

Key words: ewes, herd turnover, exterior, withers height, chest, chest depth.

Kirish. Zamonaviy qorako‘lchilik sub’ektlarida suruv aylanmasi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish va tashkillashtirishda, qo‘ylarning biologik imkoniyatlaridan oqilona foydalanishda, pirovard natijada sub’ektning iqtisodiy samaradorligini yaxshilashda eng ahamiyatga ega ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Ammo, so‘nggi yillarda qorako‘lchilik bilan shug‘ullanuvchi sub’ektlarda naslchilik ishlarining asosi bo‘lgan suruv tarkibini shakllantirish hamda suruv aylanmasini to‘g‘ri tashkil qilish tadbirlariga yetarlicha e‘tibor berilmayapdi. Suruv aylanmasini ilmiy asoslangan holda to‘g‘ri tashkil etish sohaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi [4; 5].

Suruv aylanmasi suruv tarkibining ajralmas qismi bo‘lib uni tarkibida mavjud, turli texnologik guruhlardagi qo‘ylar bosh soni uning tirik vazni suruvga kirim bo‘lgan va olingan qo‘zilarning taqsimoti yosh guruhlardan katta yoshli guruhga ko‘chirish, suruv tarkibidagi chiqarilgan qo‘ylarning bosh soni sababi va maqsadi ko‘rsatiladi hamda yil oxirida hisob kitob qilinadi [1; 3].

Suruvdagi asosiy qayta urchuvchi va ishlab chiqaruvchi birlik soʻvliq ekanligini koʻrsatib, suruvdagi soʻvliqlar salmogʻini yuqoriligi tarmoqni intensivlashtirishning asosiy omili hisoblanib, qoʻylar bosh sonini jadal koʻpaytirish, mahsulot ishlab chiqarishni oshirish, suruv aylanmasini tezlashtirib uning tarkibiy sifatini yaxshilash imkonini beradi. Bu haqda qator olimlar oʻz izlanishlarini olib borganlar [2; 6; 7].

Tadqiqot maqsadi. Qorakoʻl qoʻylarining suruv tarkibi va aylanmasini toʻgʻri tashkil etishning qorakoʻlchilik mahsulotlariga taʼsir etuvchi omillarini oʻrganish, qorakoʻlchilik subʼektlarida ishlab chiqarish jarayonlarini toʻgʻri tashkil etishda suruv aylanmasining ahamiyatini ilmiy asoslab berish.

Tadqiqot usullari. Tajribalarimiz tasdiqlangan rejaga asosan Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi “Saxoba ota qorakoʻl nasl” MChJ da olib borildi. Bunda I-guruhga sifati boʻyicha 80 foiz elita va I sinfga mansub soʻvliqlar suruvidan olingan 120 bosh qoʻzilar tanlandi. II guruhga esa sifati boʻyicha 60 foiz elita va I sinfga mansub soʻvliqlar suruvidan olingan 103 bosh qoʻzilar tanlandi. Har xil yoshdagi qorakoʻl qoʻylari avlodlarining tirik vazn oʻsish dinamikasi aniqlandi. Qorakoʻl qoʻylar avlodlarining 12 va 18 oylik yoshida tirik vazni aniqlanib, oʻsish tezligi jadalligi hamda tana oʻlchamlari olinib, ular asosida tana tuzilish indeksleri hisoblandi va guruhlararo farq aniqlanib xulosa qilindi. Olingan natijalarni biometrik tahlil qilishda N.A.Ploxinskiyning variatsion statistika usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlarda sifati boʻyicha shakllantirilgan qorakoʻl soʻvliqlari suruvlaridan olingan avlodlarining tirik vazn oʻsish dinamikasi, tana oʻlchamlari aniqlanadi. Tadqiqotlarda qoʻylarning ekstererini belgilovchi asosiy tana oʻlchamlari va tana tuzilishi indekslarini 12 oylikdan 18 oylikkacha boʻlgan davrdagi dinamikasi oʻrganildi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, I guruh soʻvliqlardan olingan qoʻzilar tana oʻlchamlari va tirik vazn oʻsishi boʻyicha nisbatan II guruh soʻvliqlardan olingan qoʻzilar koʻrsatkichlaridan yuqori. Jumladan, 1-jadval maʼlumotlariga koʻra I guruh qoʻzilar II guruhga nisbatan 12 va 18 oylik davrlarda ham sezilarli ustunlikka ega boʻlgan. Olingan natijalar 1- va 2- jadvallarda keltirildi.

1-jadval

Tajribadagi qorakoʻl qoʻylarining oʻsish koʻrsatkichlari

Davrlar	Guruhlar			
	I (n=120)		II (n=103)	
	M±m	C _v	M±m	C _v
Qarchigʻay balandligi, sm				
12 oyligida	61,9±0,19	2,08	61,1±0,18	2,17
18 oyligida	64,4±0,19	2,09	64,1±0,20	2,21
Gavda qiya uzunligi, sm				
12 oyligida	61,8±0,17	1,94	61,2±0,20	2,28
18 oyligida	67,1±0,21	2,22	66,7±0,17	1,79
Koʻkrak qafasi aylanasi, sm				
12 oyligida	78,7±0,19	1,72	78,2±0,17	1,53
18 oyligida	84,6±0,23	1,92	84,3±0,20	1,68
Koʻkrak chuqurligi, sm				
12 oyligida	28,5±0,07	3,46	28,1±0,06	1,51
18 oyligida	30,4±0,08	1,88	30,1±0,08	1,87
Poycha aylanasi uzunligi, sm				
12 oyligida	7,5±0,04	3,87	7,3±0,05	4,78
18 oyligida	7,4±0,05	4,65	7,7±0,05	5,58

Eksterer xususiyatlarini oʻrganish boʻyicha tadqiqot natijalariga koʻra I guruhdagi qorakoʻl qoʻzilar eksterer oʻlchamlari boʻyicha II guruhdagi qorakoʻl qoʻzilardan maʼlum darajada statistik ishonchli ravishda ustunlik qilishi va ushbu ustunlikning qarchigʻay balandligi boʻyicha 0,7 smni ($P<0,01$), gavdaning qiya uzunligi boʻyicha 0,6 smni ($P<0,01$), koʻkrak

aylanasi uzunligi bo'yicha 0,5 smni ($P<0,01$), ko'krak chuqurligi bo'yicha 0,4 smni ($P<0,01$), poycha aylanasi uzunligi bo'yicha 0,2 smni tashkil etishi aniqlandi.

Tahlillar 18 oylik yosh davrida ham ushbu ustunliklarning saqlanib qolishini ko'rsatdi. Olingan natijalar bo'yicha qarchig'ay balandligi 0,3 smni ($P<0,01$), gavdaning qiya uzunligi 0,4 smni ($P<0,01$), ko'krak aylanasi uzunligi 0,3 smni ($P<0,01$), ko'krak chuqurligi 0,3 smni ($P<0,01$), poycha aylanasi uzunligi bo'yicha 0,3 smni tashkil etishi aniqlandi.

2-jadval

Tajribadagi qorako'l qo'zilarining tirik vazin ko'rsatkichlari

Davrlar	Guruhlar			
	I (n=120)		II (n=103)	
	M±m	C _v	M±m	C _v
12 oyligida	31,9 ±0,37	15,6	31,8 ±0,39	15,1
18 oyligida	39,6±0,39	13,3	39,4±0,38	11,59

Tirik vazn dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar tahlili (2-jadval) birinchi guruhi qo'zilar tirik vaznining 12 oyligida 31,9±0,37, 18 oyligida 39,6±0,39 kilogrammga yetishi qayd etilib, ikkinchi guruh qo'zilarlarda bu ko'rsatkich mutanosib ravishda 31,8±0,39 va 39,4±0,38 kilogrammni tashkil etishi aniqlandi. Olingan natijalar tahlili bo'yicha I tajriba guruhidagi qo'zilarlarning tirik vazini bo'yicha II nazorat guruhiga nisbatan biroz ustunlik qilishi aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqotlarda I tajriba guruhidagi qo'zilarlari II nazorat guruhiga nisbatan 12 va 18 oylik davrida tirik vazn dinamikasi hamda tana tuzilish indekslarini o'rganish natijalariga ko'ra sezilarli farqlanishlar borligini ko'rsatdi. Bu natijalarni sovliqlar suruvlarini shakllantirishda albatta inobatga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibragimov B.B. Turli tug'ilish tipdagi qorako'l qo'zilarining o'sish jadalligi xususiyatlari. Zooveterinariya 2017 yil №3. 37 b.
2. Zokirov M., Valiev Y., Shirinboev Sh. Qorako'lchilik. Toshkent 1983. 196 b.
3. Ismoilov M.Sh., Gaziev A.G., Sherqulov A.M. Qo'ylarning mahsildorlik parametirlari va ularga biometrik ishlov berish metodlari. Samarqand 2016. 7-8 b.
4. Khamdamovna, J. S., & Klichev, Z. (2022). CORRECT ORGANIZATION OF DRIVING IN KARAKUL SUBJECTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(5), 6-8.
5. Бобокулов, Н. А., Ибрагимов, Ж. Х., & Кличев, З. С. (2020). АКТУАЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ МОДЕРНИЗАЦИИ СТРУКТУРЫ СТАДА ОВЕЦ. *ҚОРАҚЎЛЧИЛИК ВА ЧЎЛ ЭКОЛОГИЯСИ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ*, 214.
6. Jiyanmurodova, S. X., & Klichev, Z. S. (2022, November). QORAKO 'L QO'ZILARINING O 'SISH DINAMIKASI. In *E Conference Zone* (pp. 121-124).
7. Кличев, З. С. (2019). Динамика живой массы каракульских ягнят окрасок сур и черной в подсосный период. *Овцы, козы, шерстяное дело*, (3), 38-39.